

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI
JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI**

**JIZZAX VILOYATINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2024-YIL
YANVAR-SENTABR**

Jizzax – 2024-y.

SO‘Z BOSHI

Jizzax viloyatining statistik axborotnomasi Jizzax viloyatining ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Jizzax viloyati statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2024-yil yanvar-sentabr oylari yakunlari bo‘yicha Jizzax viloyatining asosiy statistik ko‘rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda 2017 yilning I choragidan boshlab, hisobot davri uchun statistik ko‘rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O‘zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT–2) bo‘yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud iqtisodiy faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT–2 talablari qo‘llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo‘naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog‘–kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash, suv ta‘minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B, C, D, E, F seksiyalari). Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini, iqtisodiyot tarmog‘i sifatida talqin qilishdagi tafovutni bartaraf etish maqsadida, yangilangan tasniflagichda qishloq xo‘jaligi faqatgina dexqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga olmay, balki o‘rmon va baliq xo‘jaliklari mahsulotlarini ham o‘z ichiga oladi (A seksiyasi “Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi”).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi iqtisodiy faoliyat turlarining ulush ko‘rsatkichlari yalpi qo‘shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya‘ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar chiqarib tashlangan).

Nashr 13 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo‘lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyati, investitsion faollik, Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi, sanoat, qurilish, bozor xizmatlarining rivojlanish dinamikasi to‘g‘risidagi statistika ma‘lumotlarini o‘z ichiga oladi.

Statistik axborotnomada sanoat, qurilish, qishloq xo‘jaligi, transport, ichki va tashqi savdo, ulgurji va chakana savdo, mehnat bozori va demografik holat to‘g‘risidagi tahliliy ma‘lumotlar keng yoritilgan.

Dastlabki hisoblarga asosan kelgusida aniqlik kiritilishi mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar keltirilmoqda.

Qisqartma va shartli belgilar

YaHM	—	yalpi hududiy mahsulot	l	—	litr
foiz	—	%	0,0	—	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	—	milliard	m.	—	marta
mln.	—	million	—	—	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	—	million AQSH dollari	Ga	—	gektar
kv	—	kvadrat	t	—	tonna
km	—	kilometr	1), 2), 3).....	—	izohning mavjudligi
m	—	metr			


MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	5
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT	6–14
II. SANOAT	15–29
III. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	30–47
IV. INVESTITSIYA VA QURILISH ISHLARI	48–63
V. XIZMATLAR	64–80
VI. TRANSPORT	81–84
VII. ISTE'MOL BOZORI	85–97
VIII. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT	98–112
IX. KICHIK TADBIRKORLIK	113–116
X. KORXONA VA TASHKILOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	117–128
XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	129–141
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	142–151
XIII. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	152–160

**Jizzax viloyatida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2024-yil yanvar-sentabr**

	<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mrd. so'm</i>	<i>2023-yil yanvar-sentabriga nisbatan foiz hisobida</i>
	Yalpi hududiy mahsulot	30 320,9	105,7
	Sanoat mahsuloti	18 721,3	107,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) lari	20 222,0	101,2
	Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	17 389,3	150,5
	Qurilish ishlari	4 569,8	108,8
	Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	830,5	102,3
	Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi.-km)	1 941,0	101,2
	Chakana savdo tovar aylanmasi	6 912,4	108,2
	Xizmatlar, jami	13 719,2	113,2
	Tashqi savdo aylanmasi, (mln. AQSH doll.)	1 453,1	141,2
	Eksport	149,4	113,6
	Import	1 303,7	145,3
	Saldo (+,-)	-1 154,3	x

I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT





Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi joriy narxlarda 30 320,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. YaHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,7 foizni tashkil etdi.



2022-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning deflyator indeksi

2022-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning o'sish sur'atlari

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan foizda)




Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.




**2022-2024yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHM
o'sish (kamayish) sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)**


YaHM




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Xizmatlar



Sanoat



Maxsulotlarga sof soliqlar




**2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda**

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 101,3 foiz, (YaHM tarkibidagi ulushi 39,7 foiz), sanoat – 107,0 foiz (17,8 foiz), qurilish – 108,8 foiz (6,5 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 120,8 foiz (13,1 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari – 113,4 foiz (3,5 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 102,9 foiz (19,4 foiz) ni tashkil qildi.



**2024- yilning yanvar-sentabr oylarida aholi jon boshiga
hisoblangan YaHM hajmi va o'sish sur'atlari**




Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 19 962,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,5 foizga o'sdi.


**2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	<i>Mrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2023- yil</i>	<i>2024- yil</i>	
I. YaHM	26 206,6	30 320,9	105,7
<i>shu jumladan:</i>			
 Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 493,8	29 630,5	105,7
 Mahsulotlarga sof soliqlar	712,8	690,4	105,5
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	25 493,8	29 630,5	105,7
 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	10 969,8	11 765,2	101,3
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	6 109,1	7 212,5	107,5
 sanoat	4 425,2	5 281,1	107,0
 qurilish	1 683,9	1 931,4	108,8
Xizmatlar	8 414,9	10 652,8	110,1
 savdo, yashash va ovqatlanishbo'yichaxizmatlar	2 898,9	3 883,4	120,8
 tashish va saqlash, axborotva aloqa	811,3	1 024,8	113,4
 boshqa xizmat tarmoqlari	4 704,7	5 744,6	102,9

Iqtisodiy o'sish sur'ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir.


**2024- yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



	<i>Ko'rsatkichlarnomi</i>	2023- yil	2024- yil
	I. YaHM, jami	100,0	100,0
	<i>Shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,3	97,7
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,7	2,3
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	43,0	39,7
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	24,0	24,3
	sanoat	17,4	17,8
	qurilish	6,6	6,5
	Xizmatlar	33,0	36,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,4	13,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3,2	3,5
	boshqa xizmat tarmoqlari	18,4	19,4

2024- yilning yanvar-sentabr oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 97,7 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,3 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligining YaHM tarkibidagi ulushi 39,7 foizni, sanoat tarmogʻi 17,8 foizni, qurilish 6,5 foizni va xizmatlar sohasi 36,0 foizni tashkil qildi.




Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar boʻyicha tarkibi
yanvar-sentabr holatiga (jamiga nisbatan foizda)




● Yalpi qoʻshilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 101,3 % (YaHM-tarkibidagi ulushi – 39,7 %), sanoatda – 107,0 % (17,8 %), qurilishda – 108,8 % (6,5 %), xizmatlar sohasida – 110,1 % ni (36,0 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 120,8 % (13,1 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 113,4 % (3,5 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,9 % (19,4 %) ni tashkil qildi.




■ 2023-yil


■ 2024-yil



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




2024- yilning yanvar-sentabr oylarida YAHM deflyatori indeksi 2023- yilning yanvar-sentabr oylaridagi narxlarga nisbatan 109,5%ni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari xizmatlar sohasida – 115,0 % va sanoatda – 111,5 % qayd etildi.




Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2023- yil yanvar-sentabr




2024- yil yanvar-sentabr



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2024- yil yanvar – sentabr oylarida – 13,1 foizni (2023- yil yanvar – sentabrda – 11,4 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 3,5 foizni (3,2 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 19,4 foizni (18,4 foiz) tashkil etdi.



2023-2024- yillarning yanvar-sentabr oylarida kichik biznesning hajmi va YaHMdagi ulushi

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik 21 943,1 mlrd. so'mni tashkil etdi (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 19 036,1 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 74,1 % ni (2023- yilning yanvar-sentabr oylarida – 74,7 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

